



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr


## RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 15,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 7115,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1898,1 ming so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.

Hozirgi vaqtda viloyat hududida 46,5 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 34,0 % ni tashkil etdi.

## 2018 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %




2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7115,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>7115,8</b>	<b>108,2</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	455,9	117,6
Moliyaviy xizmatlar	685,8	132,1
Transport xizmatlari	1963,0	105,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1803,9	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	185,7	102,4
Savdo xizmatlari	2207,9	103,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	200,8	103,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	302,8	118,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	96,7	112,0
Ijara xizmatlari	259,3	107,1
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	208,3	102,9
Shaxsiy xizmatlar	301,7	102,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	61,7	141,6
Boshqa xizmatlar	186,2	103,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlari hajmi (1057,0 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (500,5 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (221,6 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (68,8 mlrd.so'm), ta'lim xizmatlari (84,6 mlrd.so'm)ga oshganligi kuzatildi.


### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 15,4 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (141,6 %), moliyaviy xizmatlar (132,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (118,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,1 %), kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (102,9 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,3 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (90,8 %) etakchilik qilmoqda.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (98,3 %) tashkil etadi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>7115,8</b>	<b>108,2</b>
shaharlar:		
Samarqand	4006,0	109,2
Kattaqo'rg'on	122,5	106,4
tumanlar:		
Oqdaryo	176,2	107,0
Bulung'ur	219,2	106,8
Jomboy	170,7	106,6
Ishtixon	231,3	106,9
Kattaqo'rg'on	235,8	107,3
Qo'shrabot	121,6	106,6
Narpay	184,1	107,0
Payariq	230,9	106,9
Pastdarg'om	283,5	106,8
Paxtachi	121,4	106,7
Samarqand	302,8	107,1
Nurobod	140,4	106,1
Urgut	352,6	108,0
Tayloq	216,8	107,2

Hududlar o'rtasida Samarqand shahri (4006,0 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Samarqand shahri bo'yicha 109,2 % ni tashkil etdi.

Samarqand shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi 56,3 % ni tashkil etadi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Urgut (108,0 %) va Kattaqo'rg'on (107,3 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Nurobod (106,1 %), Jomboy (106,6 %), Paxtachi (106,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Qo'shrabot tumanida (1,7 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1898,1 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 575,6 ming so'mga oshdi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida - 7517,4 ming so'm qayd etildi.

Viloyat statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Mas`ul: A.Abdullayev  
(71) 230-85-35